

TOSHKENT SHAHRIDA TRANSPORT LOGISTIKASINING TURIZM
RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI (AEROPORTLAR MISOLIDA)

Ro'ziqulov Elchin Hamroqul o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti, elchinruzikulov@gmail.com

+998950650035

Farxodova Shohnova Umidbek qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti stajor o'qituvchisi, farhodovashahnoza@gmail.com

+998905597981

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahrining turistik imkoniyatlari, o'tgan yillarda Toshkentga kelgan turistlar soni va bugungi kunda Toshkentning turizmdagi kelajakdagi istiqbollarini ko'rsatib beruvchi omillardan biri sifatida transport logistikasi – sayyohlarga xizmat ko'rsatayotgan aeroport va aviakompaniyalar hamda ularning xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga doir bir qancha tavsiyalar beriladi.

Tayanch iboralar: Xalqaro va milliy iqtisodiyot, mintaqaviy tafovut, aholi bandligi, turistik oqim, turistik salohiyat, aviaparvozlar va aeroportlar.

**ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В
ГОРОДЕ ТАШКЕНТЕ (НА ПРИМЕРЕ АЭРОПОРТОВ)**

Рузикулов Эльчин

Ташкентский государственный университет востоковедения

Фарходовой Шохнозы Умидбековна

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация: Помимо освещения экономического значения туризма, в данной статье говорится о туристических возможностях Ташкента, количестве туристов, приехавших в Ташкент в последние годы, а также о новых направлениях туризма, развивающихся в Ташкенте сегодня. Также в качестве одного из факторов, указывающих на дальнейшие перспективы Ташкента в сфере туризма, дается ряд рекомендаций по улучшению транспортной логистики – аэропортов и авиакомпаний, обслуживающих туристов, а также качества их услуг.

Ключевые слова: международная и национальная экономика, региональные различия, занятость населения, туристический поток, туристский потенциал, авиарейсы и аэропорты.

**THE IMPORTANCE OF TRANSPORT LOGISTICS IN THE DEVELOPMENT
OF TOURISM IN THE CITY OF TASHKENT (ON THE EXAMPLE OF AIRPORTS)**

Ruzikulov Elchin

Tashkent State University of Oriental Studies

Farkhodova Shokhnoza


Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: *This article highlights the economic importance of tourism, the touristic opportunities of Tashkent, the number of tourists who visited Tashkent in the last year, and the new directions of tourism developed in Tashkent today. Also, as one of the factors that indicate the future prospects of Tashkent in tourism several recommendations are given to improve transport logistics - airports and airlines serving tourists, as well as the quality of their services.*

Key words: *international and national economy, regional difference, population employment, tourist flow, tourist potential, flights and airports.*

Jahon va milliy iqtisodiyotda kuchli multiplikator samarasini beradigan turizm sanoati deyarli barcha sohalarda o'z ta'sir kuchiga ega. "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm sohasining rivojlanishiga nafaqat kishilar turmush farovonligining oshishiga, balki yangi ish o'rinlarini barpo etish orqali bandlik muammosini hal etishga, aholining savodxonlik darajasiga, tibbiy xizmat ko'rsatishning yaxshilanishiga, shuningdek, mintaqaviy tafovutlarni pasaytirish va ijtimoiy tengsizliklarni yumshatishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi." [1] Turizmning iqtisodiy ahamiyatini anglagan holda, O'zbekistonda turizm sohasini jadal sur'atlarda rivojlantirish siyosatiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bioxilma-xillik, go'zal tabiat manzaralari, tarixiy obyektlari, boy madaniy merosi, o'ziga xos an'ana va qadriyatlar ega bo'lgan O'zbekistonda ko'p sonli turistik oqimni qabul qiluvchi mamlakat sifatida yuksak turistik salohiyat mavjud. Butunjahon Turizm Tashkilotiga (UN Tourism) O'zbekiston 1993-yilda a'zo bo'lgan davlat bo'lib, 2023-yilda Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi Samarqand shahrida o'tkazildi. Mazkur keng ko'lamli tadbirda kotib Zurab Pololikashvili ta'kidlaganidek, "O'zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega davlat". [2] Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasi davlat siyosati darajasida bo'lib, turizmni rivojlantirishga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar shakllantirish, turistik destinatsiyalarda infratuzilma va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, xavfsizlik darajasini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar shular jumlasidandir. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi tarixiy turizm obyektlari, shuningdek, zamonaviy turizm yo'nalishlarini rivojlantirish natijasida ichki va xalqaro turistlar sonini jadal oshirish maqsad qilib qo'yilgan. Shu o'rinda aytish joizki, o'tgan yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 6,6 mln tashkil qilgan bo'lsa, sayyohlarning O'zbekistonda qolish davomiyligi 4 kunga uzaygan. Bu borada sayyohlar tomonidan eng ko'p tashriflar soni bo'yicha Toshkent shahri yetakchilik qilmoqda. [3]




1-rasm. 2023-yilda O'zbekistonda tunab qolgan kechasiga nisbatan sayyohlar soni (viloyatlar kesimida, ming nafarda)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023-yilda bergan statistika hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ko'rishimiz mumkinki, o'tgan yil hisobi bo'yicha Toshkent shahrida 4,5 mlndan ortiq sayyoh tunab qolgan. Buning asosiy sababi sifatida Toshkent shahri mamlakatning yuragi – poytaxti ekanini inobatga olib aytish kerakki, Toshkent qulay va nisbatan sifatli infratuzilma rivojlanganligi, muzey va diqqatga sazovor joylari ko'pligi, o'zgacha dizayni bilan ajralib turadigan tom ma'nodagi tarixiy metropoliteni bilan mashhurdir. Sayyohlar eng ko'p tunab qolgan turistik destinatsiyalar qatorida Samarqand va Buxoro viloyatlari poytaxtdan keyingi o'rinlarni band qilgan. Boshqacha qilib aytganda, turizm poytaxt shaharlar, odatda, qabul qiluvchi va yetkazib beruvchi mamlakatlar yuzi sanaladi. Shu jihatdan olib qaraganda, Toshkentda mamlakatimiz uchun nisbatan yangi bo'lgan turizmning zamonaviy yo'nalishlari erta rivojlandi. Misol tariqasida MICE turizm, ekstremal turizm, shahar turizm kabilarni aytish mumkin.

Quyidagi 2-jadvalga e'tibor qaratilsa, 2023-yilda Toshkent shahrida tunab qolgan kechasiga nisbatan sayyohlar oqimining oylar kesimida tashrifini aniqlash mumkin. Yil boshida 177 mingga yaqin turistlar Toshkentda tunab qolishgan bo'lsa, yil yakuni bo'yicha mazkur ko'rsatkich 387 mingga yetgan. Yuqori ko'rsatkichlar yilning iliq mavsumi – iyul va noyabr oylariga to'g'ri kelgan, ya'ni, iyul oyida 485 ming, avgustda 474 ming, sentabrda 499 ming, oktabrda 593 ming va noyabr oyida 464 ming turist tashrifini ko'rish mumkin.



2-rasm. 2023-yilda Toshkent shahriga tashrif buyurgan sayyohlar soni (oylar kesimida, ming nafar)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023-yilda bergan statistika hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sayyohlarning ko'p sonli oqimi yo'nalayotgan Toshkent shahrining ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladigan omillardan biri bu transport logistikasi hisoblanadi. "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi mamlakatimizdagi havo transporti bo'yicha yetakchi bo'lgan bo'lsa, endilikda raqobatbardosh aviakompaniyalar ham o'z faoliyatini yo'lga qo'ymoqda. 2021-yilning 26-aprel kunidan boshlab o'z mijozlariga xizmat ko'rsata boshlagan "Qanot Sharq" bunga yaqqol misol bo'la oladi. [4] Shuningdek, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayland, Hindiston, Rossiya Federatsiyasiga aviaparvozlar, asosan, Toshkent xalqaro aeroportidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, Centrum Air, Panorama Airways, Air Samarkand, Silkavia, FlyKhiva kabi milliy aviakompaniyalarning yurtimizda mavjudligi ham havo transportida turistlar uchun qulaylik yaratadi.

2024-yil 12-yanvardagi PF-9-sonli "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [5] Prezident farmoniga muvofiq, Toshkentda uzoq mamlakatlardan tashrif buyuruvchi turistlarni tashishda asosiy transport bo'lgan aeroport va aviakompaniyalar xizmat sifatini yaxshilash uchun bir qancha masalalarga e'tibor qaratish joiz.

Turizmni rivojlantirishda havo transportining ahamiyatini Kowalczyk ta'kidlab, quyidagi asosiy ta'sir zonalarini sanab o'tadi:

- turistik qadriyatlarning ko'rinishi;
- turistik infratuzilmaning rivojlanishi;
- turistik xizmatlarning rivojlanishi;
- aloqa qulayligini oshirish. [6]

O'zbekiston Respublikasida 11 ta xalqaro aeroport mavjud bo'lib, ular orasida Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti – O'zbekistonning eng zamonaviy hamda katta aeroportlaridan biri hisoblanadi. Uning katta yutuqlaridan biri shundaki, aeroport dunyoning deyarli barcha yirik va savdo ahamiyatiga ega bo'lgan shaharlari bilan o'zlarining havo aloqalarini o'rnatgan va xohlagan turdagi havo kemalarini qabul qilish imkoniyatiga ega. Aeroportning hozirgi kundagi yo'lovchilarni qabul qilish imkoniyati soatiga 1300 kishiga yetadi. Toshkent-3 terminali orqali mahalliy yo'lovchilarga xizmat ko'rsatiladi, bu bino yo'lovchilarni soatiga 400 ta gacha qabul qilish qobiliyatiga ega. Foydalanuvchilar uchun dorixona, kafe, do'kon va telefon xizmatlari yo'lga qo'yilgan.

Toshkent-2 terminali, asosan, xorijga ketayotgan va xorijdan kelayotgan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatadi, yo'lovchilarning havo kemalariga chiqqunlarigacha bo'lgan vaqt davomida ular uchun qulay bo'lgan sharoit yaratilgan. O'zbekistonlik va xorijlik yo'lovchilar kompaniya xizmatlaridan qulay ravishda foydalanishlari uchun binoda keng va yorug' kutish xonalari, do'konlar, tez ovqatlanish uchun kafe xizmat qilib turadi. [7]

XULOSA

Toshkent shahri o'tgan yillar mobaynida eng ko'p turist qabul qilgan va keying yillarda katta sonli turistik oqimni qabul qilishi kutilayotganini hisobga olib, Toshkentda aeroport va aviakompaniyalarning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ahamiyatga molik masaladir. O'z navbatida, Toshkent aeroportlarida avtoturargohda mashinalar joylashtirish uchun mavjud sharoitni yaxshilash aeroport mijozlariga yanada yengillik yaratadi.

O'zbekistondagi sayohati davomida ichki va xalqaro turistlarda qoniqish hissini qoldirish maqsadida aeroportlar xizmatini operativligini oshirish, xususan, sivilizatsiya va taraqqiyot ostonasi – Toshkentda kutish davomiyligini (terminalda kutish, parvozdan oldingi ko'rik, bagaj yuborish va qabul qilish, aniq punktlarga bagajlarning yetkazilishi va biletarni qaytarishdagi kutishlarni) 30 daqiqadan kamaytirish sayyohlarning vaqtini tejashga xizmat qiladi.

Potensial turistlar, odatda, aviakompaniya xizmatlaridan foydalanishda ma'lumotlar yetarli emasligidan nolishadi. Jahon tajribasini oladigan bo'lsak, tezkor ma'lumot yetkazish va ma'lumotlarning aniq va yetarliligi borasida "Turkish Airlines" sayyohlar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Bunga qo'shimcha tarzda, aeroport va aviakompaniyalarda asosan bagaj bilan muammolar yuzaga kelishi sayyohlarning tabini xira qiladi. Buning yechimi o'laroq, Toshkent shahrida joylashgan aeroport yoki aviakompaniyalarda bagaj masalalariga alohida e'tibor qaratilishi, strategik choralar ko'rilishi tavsiya etiladi.

Aviayo'nalishlarda parvozlar amalga oshiradigan ba'zi samolyotlarda sanitariya holatlari, hojatxonalarning tozaligi turistlar uchun xizmat sifatini baholashda muhim omil hisoblanganidek, poytaxtga va poytaxtdan aviaparvozlar amalga oshiruvchi samolyotlarda bu masalaga jiddiyroq ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.01.2024-yildagi PF-9-sonli "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni - <https://lex.uz/docs/-6759637> [5]
2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2023-yilda bergan statistika hisoboti. [3]
3. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha buddizm obidalarini asosida yangi turistik marshrutlarni yaratish istiqbollari: monografiya/mualliflar jamoasi. – T.: "EFFECT-D". 2022. – 200 b. [1]
4. Kowalczyk, A. Relacje zachodzące między rozwojem transportu lotniczego a rozwojem turystyki. Współczesne uwarunkowania i problemy rozwoju turystyki. Kraków: IGiGP UJ. 2013. 62 c. [6]
5. The Importance of the Air Transport Sector for Tourism. Handbook of Tourism Economics: Analysis, New Applications and Case Studies. London. World Scientific Publishing Editors. C. Tisdell. 2013. 224 p.
6. <http://www.unwto.org> – Butunjahon Turizm Tashkilotining rasmiy veb-sayti.
7. <https://t.me/uzbektourismofficial> - Uzbektourism rasmiy veb-sayti. [4]
8. <https://www.uzairways.com/uz> - Uzbekistan Airways rasmiy veb-sayti [7]
9. <https://uza.uz/uz> - O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy veb-sayti [2]
10. <https://tashkent-airport.uz/> - Islom Karimov Nomidagi Toshkent Xalqaro Aeroportining rasmiy veb-sayti.